

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 166735 на приобретение Xorazm viloyati Urganch shahrida joylashgan O‘zbekiston zamonaviy san’ati muzeyining filiali “Lazgi” muzeyini mukammal ta'mirlash

Способ проведения электронный

Дата 15.11.2022

Время рассмотрения 08.11.2022 17:30

Закупочная комиссия Ўзбекистон Республикаси Туризм ва спорт вазирлиги ҳузуридаги Маданий мерос агентлиги, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	ABDIKARIMOV BAXODIR GANJIYEVICH	Madaniy meros agentligi direktori	308779353
Секретарь комиссии	ABDIRAIMOV QURBONALI JO'RAYEVICH	Madaniy merosni asrashga doir ishlarni rejalashtirish va tashkil qilish bo'limi bosh mutaxassisi	308779353
Член комиссии	CHUTBOYEV MAXMUD MAMARAJABOVICH	Obyektlardan foydalanish, raqamlashtirish va davlat-xususiy sheriklikni joriy etish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari	308779353
Член комиссии	ZARIPOV TEMUR SHAVKAT O'G'LI	Muzeylarni rivojlantirish, yodgorliklarni muzeylashtirish va Milliy muzey fondi davlat katalogini yuritish boshqarmasi boshlig'i	308779353
Член комиссии	MAXMUDOV SHUXRAT BAXODIR O'G'LI	Madaniy meros agentligi direktori o'rinbosari	308779353
Член комиссии	CHINALIYEV BAXTIYOR EGAMBERDIYEVICH	Madaniy merosni asrashga doir ishlarni rejalashtirish va tashkil qilish bo'limi boshlig'i	308779353
Член комиссии	KOBILOVA NASIBA XURRAMOVNA	Iqtisodiy-tahlil, moliya va buxgalteriya boshqarma boshlig'i	308779353
Член комиссии	HAQQULOV BAHODIR BOTIROVICH	Madaniy merosni asrashga doir ishlarni litsenziyalash, ruxsatnoma berish, ilmiy-texnik nazorat qilish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari	308779353

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 15.11.2022 года № лота 166735.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 35

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по капитальному ремонту зданий
Подробное описание	Работы по капитальному ремонту зданий музея Лазги согласно ПСД
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	760 000 000.00
Стартовая сумма	760 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilganligi

Тип: Текстовое значение

Описание: Lozim darajada (ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MIROVOY STIL MCHJ	2	ФАЙЛ ЮКЛАНДИ	2	Экспертная		
MCHJ "E ZOZ DIZAYN"	2	yuklandi	2	Экспертная		
"TOSH MASJID" MCHJ	2	Маълумотнома илова килинди	2	Экспертная		
XIVA SILVER QURILSH MCHJ	2	малумот тақдим этилди	2	Экспертная		
СУРГУТ НЕФТСТРОЙ Х.К.	2	Маълумот	2	Экспертная		
DAVLATNAZIR INVEST MCHJ	2	1	2	Экспертная		
SOYOT QURILISH SERVIS XK	2	2	2	Экспертная		

Критерий №2 Ishtirokchi va ishtirokchi bankining offshor zonalarda ro'yxatdan o'tkazilganligi

Тип: Текстовое значение

Описание: Ха / yo'q (ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MIROVOY STIL MCHJ	2	ФАЙЛ ЮКЛАНДИ	2	Экспертная		
MCHJ "E ZOZ DIZAYN"	2	yuklandi	2	Экспертная		
"TOSH MASJID" MCHJ	2	Маълумотнома илова килинди	2	Экспертная		
XIVA SILVER QURILSH MCHJ	2	малумот юкланди	2	Экспертная		
СУРГУТ НЕФТСТРОЙ Х.К.	2	Банк маълумотномаси	2	Экспертная		
DAVLATNAZIR INVEST MCHJ	2	13	2	Экспертная		
SOYOT QURILISH SERVIS XK	2	2	2	Экспертная		

Критерий №3 Ishtirokchi malakasi yani O'tgan uch yil mobaynida amalga oshirilgan shu kabi ishlarda ishtirokchining tajribasi (Portfolio)

Тип: Текстовое значение

Описание: Bor / yo'q (ishtirokchi tomonidan taqqdim etilgan ma'lumot asosida amalga oshiriladi)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MIROVOY STIL MCHJ	20	ФАЙЛ ЮКЛАНДИ	13	Экспертная		
MChJ "E ZOZ DIZAYN"	20	yuklandi	12	Экспертная		
"TOSH MASJID" MCHJ	20	Маълумотнома илова килинди	9	Экспертная		
XIVA SILVER QURILSH MЧЖ	20	малумот такдим килинди	9	Экспертная		
СУРГУТ НЕФТСТРОЙ Х.К.	20	Далолатномалар	11	Экспертная		
DAVLATNAZIR INVEST MЧЖ	20	12	14	Экспертная		
SOYOT QURILISH SERVIS XK	20	20	17	Экспертная		

Критерий №4 Tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha kafolat xati

Тип: Текстовое значение

Описание: Bor / yo'q (ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MIROVOY STIL MCHJ	2	ФАЙЛ ЮКЛАНДИ	2	Экспертная		
MChJ "E ZOZ DIZAYN"	2	yuklandi	2	Экспертная		
"TOSH MASJID" MCHJ	2	Маълумотнома илова килинди	2	Экспертная		
XIVA SILVER QURILSH MЧЖ	2	маълумот юкланди	2	Экспертная		
СУРГУТ НЕФТСТРОЙ Х.К.	2	Кафолат хати	2	Экспертная		
DAVLATNAZIR INVEST MЧЖ	2	11	2	Экспертная		
SOYOT QURILISH SERVIS XK	2	2	2	Экспертная		

Критерий №5 Pudrat tashkilotining elektron reytingi to'g'risida ma'lumot

Тип: Текстовое значение

Описание: Bor / yo'q (ishtirokchi tomonidan taqqdim etilgan ma'lumot asosida amalga oshiriladi)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MIROVOY STIL MCHJ	5	ФАЙЛ ЮКЛАНДИ	2	Экспертная		
MChJ "E ZOZ DIZAYN"	5	yuklandi	3	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"TOSH MASJID" MCHJ	5	Маълумотнома илова килинди	4	Экспертная		
XIVA SILVER QURILSH MCHJ	5	маълумот юкланди	3	Экспертная		
СУРГУТ НЕФТСТРОЙ Х.К.	5	Рейтинг курсаткичлари	4	Экспертная		
DAVLATNAZIR INVEST MCHJ	5	10	2	Экспертная		
SOYOT QURILISH SERVIS XK	5	5	4	Экспертная		

Критерий №6 Ishtirokchining Buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik muhokamasi bosqichidagi holati

Тип: Текстовое значение

Описание: Ха / yo'q (ishtirokchining kafolat xati va Buyurtmachi ma'lumoti asosida amalga oshiriladi)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MIROVOY STIL MCHJ	2	ФАЙЛ ЮКЛАНДИ	2	Экспертная		
MCHJ "E ZOZ DIZAYN"	2	yuklandi	2	Экспертная		
"TOSH MASJID" MCHJ	2	Маълумотнома илова килинди	2	Экспертная		
XIVA SILVER QURILSH MCHJ	2	маълумот такдим этилди	2	Экспертная		
СУРГУТ НЕФТСТРОЙ Х.К.	2	Аудит хулосаси	2	Экспертная		
DAVLATNAZIR INVEST MCHJ	2	9	2	Экспертная		
SOYOT QURILISH SERVIS XK	2	2	2	Экспертная		

Критерий №7 Ishtirokchi tomondan taqdim qilingan texnik takliflarining Tanlov shartlarida berilgan texnik shartlarga muvofiqligi (Mosligi)

Тип: Текстовое значение

Описание: Mos / Mos emas (ishtirokchi tomonidan taqqdim etilgan ma'lumot asosida amalga oshiriladi)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MIROVOY STIL MCHJ	14	ФАЙЛ ЮКЛАНДИ	10	Экспертная		
MCHJ "E ZOZ DIZAYN"	14	yuklandi	0	Экспертная	Дисквалифицирован	
"TOSH MASJID" MCHJ	14	Маълумотнома илова килинди	12	Экспертная		
XIVA SILVER QURILSH MCHJ	14	маълумот	11	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		такдим этилди				
СУРГУТ НЕФТСТРОЙ Х.К.	14	Маълумотнома	10	Экспертная		
DAVLATNAZIR INVEST МЧЖ	14	8	13	Экспертная		
SOYOT QURILISH SERVIS ХК	14	14	12	Экспертная		

Критерий №8 Ishtirokchining moliyaviy ko'rsatkichlari taqdim etilganligi yani moliyaviy holati

Тип: Текстовое значение

Описание: Bor / yo'q (ishtirokchi tomonidan taqddim etilgan ma'lumot asosida amalga oshiriladi)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MIROVOY STIL MCHJ	5	ФАЙЛ ЮКЛАНДИ	3	Экспертная		
MCHJ "E ZOZ DIZAYN"	5	yuklandi	3	Экспертная		
"TOSH MASJID" MCHJ	5	Маълумотнома илова килинди	3	Экспертная		
XIVA SILVER QURILSH МЧЖ	5	маълумот такдим этилди	3	Экспертная		
СУРГУТ НЕФТСТРОЙ Х.К.	5	Молиявий курсаткичлар	3	Экспертная		
DAVLATNAZIR INVEST МЧЖ	5	7	4	Экспертная		
SOYOT QURILISH SERVIS ХК	5	5	5	Экспертная		

Критерий №9 Ishtirokchining kuch va vositalarining mavjudligi to'g'risida ma'lumot (Qurulish ishlariga doir transport vositalari, texnikalari, asbob, uskuna va jihozlarining mavjudligi)

Тип: Текстовое значение

Описание: Bor / yo'q (ishtirokchi tomonidan taqddim etilgan ma'lumot asosida amalga oshiriladi)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MIROVOY STIL MCHJ	10	ФАЙЛ ЮКЛАНДИ	5	Экспертная		
MCHJ "E ZOZ DIZAYN"	10	yuklandi	7	Экспертная		
"TOSH MASJID" MCHJ	10	Маълумотнома илова килинди	5	Экспертная		
XIVA SILVER QURILSH МЧЖ	10	маълумот такдим этилди	7	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
СУРГУТ НЕФТСТРОЙ Х.К.	10	Машина механизмлар руйхати	7	Экспертная		
DAVLATNAZIR INVEST МЧЖ	10	6	5	Экспертная		
SOYOT QURILISH SERVIS ХК	10	10	7	Экспертная		

Критерий №10 Ishtirokchi tomonidan barcha hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi (Ustav va guvohnomalari bilan birgalikda taqdim qilishi zarur)

Тип: Текстовое значение

Описание: Mavjud / mavjud emas (ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumot asosida amalga oshiriladi)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MIROVOY STIL MCHJ	2	ФАЙЛ ЮКЛАНДИ	1	Экспертная		
MChJ "E ZOZ DIZAYN"	2	yuklandi	1	Экспертная		
"TOSH MASJID" MCHJ	2	Маълумотнома илова килинди	1	Экспертная		
XIVA SILVER QURILSH МЧЖ	2	маълумот такдим этилди	1	Экспертная		
СУРГУТ НЕФТСТРОЙ Х.К.	2	Маълумотномаси	1	Экспертная		
DAVLATNAZIR INVEST МЧЖ	2	5	1	Экспертная		
SOYOT QURILISH SERVIS ХК	2	2	1	Экспертная		

Критерий №11 Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida ishtirokchining holati

Тип: Текстовое значение

Описание: Ха / yo'q (ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MIROVOY STIL MCHJ	2	ФАЙЛ ЮКЛАНДИ	2	Экспертная		
MChJ "E ZOZ DIZAYN"	2	yuklandi	2	Экспертная		
"TOSH MASJID" MCHJ	2	Маълумотнома илова килинди	2	Экспертная		
XIVA SILVER QURILSH МЧЖ	2	маълумот такдим этилди	2	Экспертная		
СУРГУТ НЕФТСТРОЙ Х.К.	2	Маълумотнома	2	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
DAVLATNAZIR INVEST MЧЖ	2	4	2	Экспертная		
SOYOT QURILISH SERVIS XK	2	2	2	Экспертная		

Критерий №12 Ishtirokchi “Insofsiz” ijrochilarning yagona reestrda mavjudligi

Тип: Текстовое значение

Описание: Mavjud / mavjud emas (ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MIROVOY STIL MCHJ	2	ФАЙЛ ЮКЛАНДИ	2	Экспертная		
MCHJ "E ZOZ DIZAYN"	2	yuklandi	2	Экспертная		
"TOSH MASJID" MCHJ	2	Маълумотнома илова килинди	2	Экспертная		
XIVA SILVER QURILSH MЧЖ	2	маълумот такдим этилди	2	Экспертная		
СУРГУТ НЕФТСТРОЙ Х.К.	2	Маълумот	2	Экспертная		
DAVLATNAZIR INVEST MЧЖ	2	3	2	Экспертная		
SOYOT QURILISH SERVIS XK	2	2	2	Экспертная		

Критерий №13 Budjetga qarzdorligi yo‘qligi to‘grisdagi ma’lumot

Тип: Текстовое значение

Описание: Mavjud / mavjud emas (ishtirokchi tomonidan taqqdim etilgan ma’lumot asosida amalga oshiriladi)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MIROVOY STIL MCHJ	2	ФАЙЛ ЮКЛАНДИ	2	Экспертная		
MCHJ "E ZOZ DIZAYN"	2	yuklandi	2	Экспертная		
"TOSH MASJID" MCHJ	2	Маълумотнома илова килинди	2	Экспертная		
XIVA SILVER QURILSH MЧЖ	2	малумот такдим этилди	2	Экспертная		
СУРГУТ НЕФТСТРОЙ Х.К.	2	Маълумот	2	Экспертная		
DAVLATNAZIR INVEST MЧЖ	2	2	2	Экспертная		
SOYOT QURILISH SERVIS XK	2	2	2	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
DAVLATNAZIR INVEST МЧЖ	760 000 000.00	587 000 000.00 UZS	587 000 000.00	00.00	587 000 000.00	26.10.2022 18:21:01	30
SOYOT QURILISH SERVIS XK	760 000 000.00	728 861 811.00 UZS	728 861 811.00	00.00	728 861 811.00	26.10.2022 18:26:51	24.16096
СУРГУТ НЕФТСТРОЙ Х.К.	760 000 000.00	752 400 000.00 UZS	752 400 000.00	00.00	752 400 000.00	26.10.2022 18:10:40	23.4051
"TOSH MASJID" MCHJ	760 000 000.00	670 000 000.00 UZS	670 000 000.00	00.00	670 000 000.00	26.10.2022 17:44:48	26.28358
MIROVOY STIL MCHJ	760 000 000.00	620 000 000.00 UZS	620 000 000.00	00.00	620 000 000.00	26.10.2022 12:47:22	28.40323
XIVA SILVER QURILSH МЧЖ	760 000 000.00	645 000 000.00 UZS	645 000 000.00	00.00	645 000 000.00	26.10.2022 17:57:52	27.30233

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
DAVLATNAZIR INVEST МЧЖ	52.9998	30	82.9998
SOYOT QURILISH SERVIS XK	59.9998	24.16096	84.16076
СУРГУТ НЕФТСТРОЙ Х.К.	50.0003	23.4051	73.4054
"TOSH MASJID" MCHJ	47.9997	26.28358	74.28328
MIROVOY STIL MCHJ	47.9997	28.40323	76.40293
XIVA SILVER QURILSH МЧЖ	47.9997	27.30233	75.30203
MCHJ "E ZOZ DIZAYN"	Не прошел	Не прошел	Не прошел

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 166735 от 15.11.2022 года на приобретение Xorazm viloyati Urganch shahrida joylashgan O'zbekiston zamonaviy san'ati muzeyining filiali "Lazgi" muzeyini mukammal ta'mirlash определила победителем:

SOYOT QURILISH SERVIS XK
301189032

и резервный исполнитель: DAVLATNAZIR INVEST МЧЖ (302953893)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	ABDIKARIMOV BAXODIR GANJIYEVICH	Согласен	

Член комиссии	CHUTBOYEV MAXMUD MAMARAJABOVICH	Согласен	
Член комиссии	ZARIPOV TEMUR SHAVKAT O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	MAXMUDOV SHUXRAT BAXODIR O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	CHINALIYEV BAXTIYOR EGAMBERDIYEVICH	Согласен	
Член комиссии	HAQQULOV BAHODIR BOTIROVICH	Согласен	
Член комиссии	KOBILOVA NASIBA XURRAMOVNA	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

**166735 лот юзасидан шаклланган дастлабки
баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон
баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичида иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилди.

Муҳокама тугаган сана:

17.11.2022 16:03

Комиссия раиси:

ABDIKARIMOV BAXODIR GANJIYEVICH

**2022-yil 19-oktabr kuni davlat xaridlari maxsus axborot portali (etender.uzex.uz)ga
joylashtirilgan (Lot raqami –22110012166735) lot natijasi bo'yicha
O'zbekiston zamonaviy san'ati muzeyining filiali "Lazgi" muzeyida
ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish uchun tuzilgan
№ TP-1-sonli Pudrat SHARTNOMASI**

2022 yil "18" noyabr

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi nomidan Nizom asosida harakat qiluvchi direktor **B. Abdikarimov** (keyingi o'rinlarda **"Buyurtmachi"** deb yuritiladi) bir tomondan va **"SOYOT QURILISH SERVIS"** XK nomidan Nizom asosida ish yurituvchi **U. Baltayev** (keyingi o'rinlarda **"Pudratchi"** deb yuritiladi) ikkinchi tomondan, (birgalikda **"Tomonlar"** deb yuritiladi) amaldagi normative-huquqiy hujjatlar asosida quydagilar haqida ushbu shartnomani tuzdilar.

I. Tushunchalar

1. Mazkur shartnomada quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

ijro hujjatlari – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda obyekt restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash, qurish hamda obodonlashtirishga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash, qurish hamda obodonlashtirish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

Restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash, qurish hamda obodonlashtirish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha **"Buyurtmachi"** tomonidan **"Pudratchi"**ga berilgan obyekt. Obyektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

vaqtinchalik inshootlar – **"Pudratchi"** tomonidan restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash, qurish hamda obodonlashtirish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik obyektlar;

berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning har bir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha obyektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. Shartnoma mavzusi

2. **"Pudratchi"** mazkur shartnoma shartlariga muvofiq **Xorazm viloyati Urganch shahrida joylashgan O'zbekiston zamonaviy san'ati muzeyining filiali "Lazgi" muzeyida ta'mirlash-tiklash ishlarini** bajarish majburiyatini oladi. **"Buyurtmachi"** esa **"Pudratchi"**ga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

3.1. Shartnomaning umumiy qiymmati mazkur shartnomaning ilovasiga muvofiq kelishilgan narx asosida Qo'shimcha qiymat solig'i bilan **728 861 811,0 (yeti yuz yigirma sakkiz million sakkiz yuz oltmish bir ming sakkiz yuz o'nbir) so'm 00 tiyinni** tashkil qiladi.

3.2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash, qurish hamda obodonlashtirish ishlari qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

"Buyurtmachi" tomonidan ishlar hajmi o'zgartirilganda.

3.3. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.4. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, mazkur shartnomaning 3.2.-3.3.-bandlarida sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. Pudratchining huquq va majburiyatlari

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha **"Pudratchi"** mazkur shartnomaning 1-bandida nazarda tutilgan

ishlarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga smeta-loyihaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va (yoki) jalb qilingan kuchlar bilan bajarish;

smeta-loyihaga muvofiq restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash, qurish hamda obodonlashtirish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;

qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

ishlarni bajarganlik uchun haq to'lashni talab qilish.

4.2. Mazkur shartnoma bo'yicha "Pudratchi" mazkur shartnomaning 1-bandida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun quyidagi majburiyatlarga ega:

ishni **Buyurtmachiga** mazkur shartnoma shartlarga muvofiq va shartnomaning 6.2-bandida belgilangan muddatlarda topshirish;

"Buyurtmachi"ni pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;

mazkur shartnoma bo'yicha obyektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash, qurish hamda obodonlashtirish ishlari olib borilgan maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq grafik asosida bajarilgan ishlar yuzsidan qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va boshqa tegishli hujjatlarni berib borish;

restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash, qurish hamda obodonlashtirish ishlari olib boriladigan maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.3. **"Pudratchi"** mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda obyektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun **"Buyurtmachi"** oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. Buyurtmachining huquq va majburiyatlari

5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun "Buyurtmachi" quyidagi huquqlarga ega:

ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan **"Pudratchi"** tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqalarga rioya etilishini nazorat qilish;

shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq grafik asosida bajarilgan ishlar yuzsidan qabul qilish-topshirish dalolatnomasini talab qilish;

qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilayotgan obyektni hududiga amalga oshirilayotgan ishlarni ko'zdan kechirish maqsadida pudratchining vakili bilan birgalikda kirish;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatilishini talab qilish;

5.2. Mazkur shartnomani bajarish uchun "Buyurtmachi" quyidagi majburiyatlarga ega:

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga smeta-loyihaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash, qurish hamda obodonlashtirish ishlari olib borilgan maydonini ishlar tugallanguncha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha **"Pudratchi"**ga berish;

"Pudratchi"dan tugallangan ishlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida qabul qilib olishni ta'minlash;

"Pudratchi"ga bajargan ishlarini tasdiqlovchi qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va boshqa tegishli hujjatlar asosida moliyalashtirish jadvaliga binoan avans berish va moliyalashtirishni amalga oshirish;

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab _____ oy davomida **"Pudratchi"**ga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

VI. Ishlarni bajarish muddatlari

6.1. **Pudratchi** mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

6.2. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash, qurish hamda obodonlashtirish ishlarining davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 45 kunni tashkil etadi. Ushbu muddat

tomonlar kelishuviga ko'ra uzaytirilishi mumkin.

6.3. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish loyiha topshirig'iga muvofiq amalga oshiriladi. Shuningdek mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabriga qadar amal qiladi.

VII. To'lovlar va hisob-kitoblar

7.1. Shartnomada belgilangan ishlar uchun o'zaro hisob kitob milliy valyutada "so'mda" amalga oshiriladi.

7.2. "Buyurtmachi" "Pudratchi"ga mazkur shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30 foizi miqdorida avans o'tkazadi, bu 218 658 543,3 (ikki yuz o'n sakkiz ming olti yuz ellik sakkiz ming besh yuz qirq uch so'm 30 tiyin) so'mni tashkil etadi.

"Buyurtmachi" tomonidan "Pudratchi"ga shartnomaning 2-ilovasida belgilangan to'lovlarni amalga oshirish uchun moliyalashtirish jadvali va ishlarni bajarish loyiha topshirig'iga muvofiq amalga oshirilgan ishlarni bajarganlik to'g'risida topshirilgan qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asos hisoblanadi.

7.3. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvaliga muvofiq obyektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatining 80 foizigacha doirasida amalga oshiriladi.

7.4. Obyektning shartnomaviy joriy qiymatining qolgan 20 foizi uchun "Buyurtmachi" va "Pudratchi" o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash, qurish hamda obodonlashtirish ishlari tugallanganib, obyekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin ikki bosqichda;

obyekt qabul komissiyasi tomonidan qabul qilingan kundan boshlab 30 kalendar kuni mobaynida - ishlar qiymatining kamida 15 foizi miqdorida;

mazkur shartnomada belgilangan kafolatli muddat tamom bo'lgandan keyin - ishlar qiymatining 5 foizigacha miqdorida amalga oshiriladi.

7.5. "Pudratchi" obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha obyektga mulkiy javobgarlikni o'zida saqlab qoladi. Obyekt "Buyurtmachi"ga topshirilgunga qadar obyektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi "Pudratchi"ning zimmasida bo'ladi.

VIII. Ishlarni bajarish

8.1. "Buyurtmachi" restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash, qurish hamda obodonlashtirish ishlari olib borilgan maydonida o'z vakilini - texnik auditorni tayinlash huquqiga ega. U "Buyurtmachi"ning nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek "Pudratchi" tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

8.2. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'liqsiz tanishish huquqiga egadir.

8.3. "Pudratchi" texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor "Pudratchi" tomonidan o'tkaziladigan restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash, qurish hamda obodonlashtirish ishlari olib borilgan maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

8.4. "Pudratchi" ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan obyektida ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

8.5. "Pudratchi" obyektida ishlarni olib borish tartibini nazorat qiluvchi organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

8.6. Restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash, qurish hamda obodonlashtirish Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash "Pudratchi"ning vazifasi hisoblanadi.

8.7. "Buyurtmachi" restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash, qurish hamda obodonlashtirish ishlari olib borilayotgan maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda "Pudratchi"ga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish uchun joy ajratib beradi.

8.8. "Buyurtmachi" restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash, qurish hamda obodonlashtirish ishlari olib borilayotgan maydonni berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va obyektzni privyazka qilish uchun "Pudratchi"ga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

8.9. "Pudratchi" geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan obyektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, "Pudratchi" "Buyurtmachi" bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

8.10. "Pudratchi" geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvalarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha "Buyurtmachi"ga beradi.

8.11. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida

yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni **"Pudratchi"** o'z hisobidan amalga oshiradi.

8.12. **"Pudratchi"** o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spesifikasiyalarga, texnik reglamentlarga yoki standartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifati tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

8.13. Alohida mas'uliyatli konstruksiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin **"Pudratchi"** **"Buyurtmachi"**ni va **"Davarxitektqurilishnazorat"** inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

8.14. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi **"Buyurtmachi"** va **"Pudratchi"** tomonidan mas'ul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning **"Davarxitektqurilishnazorat"** inspeksiyasi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvi dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

8.15. **"Pudratchi"** **"Buyurtmachi"** tomonidan ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

8.16. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha **"Pudratchi"** **"Buyurtmachi"**ning ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

8.17. Agar **"Buyurtmachi"** **"Pudratchi"** va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda **"Pudratchi"** o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifati ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar **"Pudratchi"** sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, **"Pudratchi"** ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni **"Buyurtmachi"**ga to'laydi.

8.18. **"Pudratchi"** qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

8.19. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha **"Pudratchi"** ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, **"Buyurtmachi"** va **"Pudratchi"**ning o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar **"Buyurtmachi"** ishlarning borishi va sifatidan yoki **"Pudratchi"**ning qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

"Pudratchi" daftarda **"Buyurtmachi"** tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. Ishlarni qo'riqlash

9.1. **"Pudratchi"** ishlar boshlanishidan qurilish tugallangungacha va qurilishi tugallangan obyekt **"Buyurtmachi"** tomonidan qabul qilib olingunga qadar cheflari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

9.2. Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk obyekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun **"Buyurtmachi"** javob beradi.

X. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

10.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

10.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda **"Pudratchi"** va **"Buyurtmachi"** ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rinishini muhokama qiladilar.

10.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI. Qurilishi tugallangan obyektning qabul qilib olish

11.1. Loyiha smeta hujjatlarida nazarda tutilgan ta'mirlash tiklash ishlari tugallangan obyektning qabul qilib olish mazkur shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda

tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek ta'mirlash tiklash ishlari tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

11.2. Obyektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida **"Pudratchi"**ning yozma bildirishnomasi **"Buyurtmachi"** tomonidan olingan kundan boshlab 10 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

11.3. **"Pudratchi"** ta'mirlash tiklash ishlari tugallangan obyektni qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin **"Buyurtmachi"**ga ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. **"Pudratchi"** **"Buyurtmachi"**ga ushbu hujjatlar to'plamini amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

11.4. Obyekt qabul qilib olingan paytdan boshlab **"Buyurtmachi"**ning to'liq javobgarligi ostida o'z tasarrufiga o'tadi.

XII. Kafolatlar

12.1. "Pudratchi":

barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini; loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalar va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, texnik reglamentlar yoki standartlarga muvofiqligini;

ishlarni qabul qilish va obyektidan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

obyektidan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

12.2. Obyekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan obyektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab 12 oy etib belgilanadi.

12.3. Agar obyektidan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar **"Pudratchi"** tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari **"Pudratchi"** va **"Buyurtmachi"**ning ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar **"Pudratchi"** bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda **Buyurtmachi** mazkur shartnomaning 7.3-bandida nazarda tutilgan kafolat summasini **"Pudratchi"**dan ushlab qolish huquqiga ega.

12.3. **"Pudratchi"** nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish **"Davraxitektqurilishnazorat"** organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha iqtisodiy sudga murojaat qilishini istisno etmaydi.

XIII. Shartnomani bekor qilish

13.1. "Buyurtmachi":

shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi **"Buyurtmachi"**ga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra **"Pudratchi"** tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati **"Pudratchi"**ning aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, **"Pudratchi"** tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

"Pudratchi" tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

13.2. "Pudratchi":

ishlarning bajarilishi **"Pudratchi"**ga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra **Buyurtmachi** tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

13.3. Shartnoma bekor qilinganda **"Buyurtmachi"** va **"Pudratchi"**ning qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda **"Buyurtmachi"**ga beriladi, **Buyurtmachi** bajarilgan ishlar qiymatini **"Pudratchi"**ga to'laydi.

13.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

13.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

13.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIV. Tomonlarning mulkiy javobgarligi

14.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, shuningdek boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

14.2. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun **"Buyurtmachi"** **"Pudratchi"**ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi **"Buyurtmachi"**ni shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

14.3. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun **"Buyurtmachi"** **"Pudratchi"**ga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 0,4 foizi miqdorida jarima to'laydi.

14.4. **"Pudratchi"** obyektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi obyekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

"Buyurtmachi" tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun **"Pudratchi"** buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash **"Pudratchi"**ni ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

14.5. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda **"Buyurtmachi"** **"Davrixitektqurilishnazorat"** inspeksiyasining xulosasi asosida obyektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek **"Pudratchi"**dan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

14.6. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

14.7. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XV. Nizolarni hal etish tartibi

15.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda, shuningdek u bilan bog'liq yuzaga kelgan barcha nizolarni tomonlar o'zaro murosaga keltiruvchi vositalar orqali hal etishga harakat qiladilar.

15.2. Agarda mavjud nizolarni murosaga keltiruvchi vositalar orqali hal etish imkoni bo'lmasa, nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

XVI. Alohida shartlar

16.1. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

16.2. **"Pudratchi"** qurilish obyektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini **"Buyurtmachi"**ning yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

16.3. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

16.4. Buyurtmachi bilan **"Pudratchi"** o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

16.5. Agar **"Pudratchi"** shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda **"Buyurtmachi"** **"Pudratchi"** qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

16.6. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

16.7. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 3 nusxada tuzildi.

XVII. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:

BUYURTMACHI	PUDRATCHI
Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi Manzil: Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko'chasi, 107B-uy x/r _____ MFO: 00444. INN:308779353 O'z.Res. Moliya vazirligi g'aznachiligi x/r 2340 2000 3001 0000 1010 O'z.Res. Markaziy banki. MFO: 00014 INN 201 122 919 Direktor  B. Abdikarimov	"SOYOT QURILISH SERVIS" XK Manzil: Urganch shahar Xonqa ko'chasi 138-uy. x/r: 2020 8000 7048 0607 3001 MFO: 00446 Bank: Toshkent sh. ATB Turonbank Bosh ofisi. INN: 301 189 032. OKED: 61133 Tel: _____ QQS ro'yxat raqami: 333020009095 Direktor  U. Baltayev M.O' 

Shartnomaga huquqiy ekspertiza etilganda u O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlari faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 10-13, 24-34 - moddalari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-357, 364-366-moddalari va O'zbekiston Respublikasida harakatdagi qonunlariga to'liq javob berishi tasdiqlandi.

Shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatlari, javobgarligi, tomonlar nizolari, ularning kelishuv orqali yoki iqtisodiy sudida hal qilinishi, hisob-kitob va boshqa shartlar ko'rsatilgan.

Yuridik bo'limi boshlig'i v.v.b

 **A. Axmedov**

2022 yil "18" noyabr dagi
7P-1 -sonli shartnomaga

1-ILOVA

**Xorazm viloyati Urganch shahrida joylashgan O'zbekiston zamonaviy san'ati muzeyining filiali
"Lazgi" muzeyida ta'mirlash-tiklash ishlarini bajarish bo'yicha shartnoma qiymatini kelishish
bayonnomasi**

Biz imzo chekuvchilar "Buyurtmachi" Madaniy meros agentligi nomidan Nizom asosida harakat qiluvchi direktor B. Abdikarimov bir tomondan va "Pudratchi" "SOYOT QURILISH SERVIS" XK nomidan Nizom asosida ish yurituvchi U.Baltayev Xorazm viloyati Urganch shahrida joylashgan O'zbekiston zamonaviy san'ati muzeyining filiali "Lazgi" muzeyida ta'mirlash-tiklash ishlarni bajarish uchun quyidagi narxlarni kelishib tasdiqlaymiz.

Ushbu kelishuv bayonnomasi "Buyurtmachi" va "Pudratchi" o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar va to'lovlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Jami: 728 861 811,0 (yeti yuz yigirma sakkiz million sakkiz yuz oltmish bir ming sakkiz yuz o'nbir) so'm 00 tiyinni tashkil qiladi.

"BUYURTMACHI"

"PUDRATCHI"

"Madaniy meros agentligi"

"SOYOT QURILISH SERVIS" XK



direktori B. Abdikarimov



direktori U. Baltayev

Yuridik shaxs to`g`risida ma`lumot
(Ro`yxatdan o`tkazuvchi va vakolatli organlar ma`lumoti asosida shakllantirildi)

Umumiy ma`lumot

INN:	301189032
Ro`yxatdan o`tkazuvchi organ:	Tuman (shahar) hokimiyati
Davlat ro`yxatidan o`tkazilgan sana:	18.05.2009
Davlat ro`yxatidan o`tkazilgan raqami:	0869
Yuridik shaxsning nomi:	"СОЕТ КУРИЛИШ СЕРВИС" ихтисослаштирилган таъмирлаш курилиш корхонаси
Tashkiliy-huquqiy shakli:	110 - Xususiy korxona
IFUT kodi:	41201 - Turar joy binolarini qurish
DBIBT kodi:	79994 - Davlat va xo`jalik boshqaruvi organlari tarkibiga kirmagan tadbirkorlik sub'yektlari

Kichik tadbirkorlik sub`ektlariga

mansubligi:	Ha
Faollik holati:	Faoliyat ko'rsatayotgan
Ustav fondi:	100 000 000,00 UZS

Boshqaruvchi haqida ma`lumot

Rahbarning F.I.SH.:	BALTAYEV ULUG'BEK DJUMANIYAZOVICH
---------------------	-----------------------------------

1. Болтаев У	
2.	
3.	
4.	
5.	

Kontakt ma`lumotlari

Elektron pochta manzili:	
Aloqa telefoni:	225-62-63
MHOBT kodi:	1733226856 - Xorazm viloyati, Xiva tumani, Sayot QFY
Ko'cha, uy, xonadon:	Соет махалласи

01/12/2022 uchun amal axborot

Yuridik shaxs to'g'risida ma'lumot
(Ro'yxatdan o'tkazuvchi va vakolatli organlar ma'lumoti asosida shakllantirildi)

Umumiy ma'lumot

INN:	302953893
Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ:	Tuman (shahar) hokimiyati
Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana:	21.05.2014
Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan raqami:	2108
Yuridik shaxsning nomi:	"DAVLATNAZIR INVEST" mas'uliyati cheklangan jamiyati
Tashkiliy-huquqiy shakli:	152 - Mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat
IFUT kodi:	41202 - YAshash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish
DBIBT kodi:	79994 - Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tarkibiga kirmagan tadbirkorlik sub'yektlari

Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga

mansubligi:	Ha
Faollik holati:	Faoliyat ko'rsatayotgan
Ustav fondi:	2 406 572 500,00 UZS

Boshqaruvchi haqida ma'lumot

Rahbarning F.I.SH.:	ATABAYEV DAVLATNAZIR KAXRAMON UGLI
---------------------	------------------------------------

1. Sharipov Kaxramon Atabayevich	62,10
2. Sharipov Mansurbek Kaxramon o'g'li	29,10
3. "MANSURBEK XIVA" MChJ	8,80
4.	
5.	

Kontakt ma'lumotlari

Elektron pochta manzili:	online_200@mail.ru
Aloqa telefoni:	914301114
MHOBT kodi:	1733406 - Xorazm viloyati, Xiva sh.
Ko'cha, uy, xonadon:	Feruz ko'chasi, 85-uy

01/12/2022 uchun amal axborot